

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XALILOVA ZILOLA FARMONOVNA

O‘QUVCHILARNING NEMIS TILINI O‘RGANISHGA QIZIQISHINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(frazologik birliklar misolida)

13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xalilova Zilola Farmonovna

О'quvchilarning nemis tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirish metodikasini
takomillashtirish (frazеологик birliklar misolida)3

Халилова Зилола Фармоновна

Совершенство методики развития интереса учащихся к изучению
немецкого языка (на примере обучения фразеологическим единицам)25

Xalilova Zilola Farmonovna

Improving the methodology for developing students' interest in learning the
German language (using the example of teaching phraseological units)51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works56

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XALILOVA ZILOLA FARMONOVNA

O‘QUVCHILARNING NEMIS TILINI O‘RGANISHGA QIZIQISHINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(frazologik birliklar misolida)

13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.Phd/Ped5216 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pirmanova Gavhar Nazarkulovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xamidova Muborak Hafizovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yaxyoyeva Gulnora Baxtiyorovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 21-fevral soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221 57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (822 raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 7-fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil 6-fevraldagi 16-raqamli reyestr bayonnomasi)



N.B. Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.B. Ro'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent

Sh.Sh. Olimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan integratsiyalashuv jarayoni, xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorligi chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojni kuchaytirmoqda. UNESCO tomonidan qabul qilingan "2030-yilgacha barqaror taraqqiyot uchun ta'lim" konsepsiyasi¹ global miqyosda til o'rganish, ayniqsa, o'quvchilarning nemis tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirishda interaktiv va kreativ ta'lim tizimini yanada takomillashtirishni XXI asrning dolzarb masalalari qatoriga kiritdi. Mazkur pedagogik tendensiya o'quvchilarning nemis tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirish metodikasi va uni takomillashtirishda keng eruditsiya, tashkil qilinayotgan ta'lim shakllari asosida ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, kelajakda raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ta'lim tizimi kompetentlik va kreativ yondashuvlar asosida o'quvchilarning nostandart vaziyatlarda tanqidiy fikrlashini rivojlantirish orqali ijodiy didaktik jarayonini shakllantirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratishga e'tibor qaratmoqda. Zotan, umumiy o'rta ta'limning ta'lim sifatini ta'minlashdagi ijtimoiy rolini oshirishga yo'naltirilgan xorij tillarini o'zlashtirish masalalari dolzarb tendensiyalardan biri sifatida tadqiq etilishi muhim. Ta'lim tizimining deyarli barcha sohalorida, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy, kouchingli sohalarda ham nemis tilini o'qitishdagi kreativ yondashuvni qo'llab quvvatlashga bo'lgan e'tibor oshmoqda. Germaniya, Luksemburg, Lixtenshtayn, Rossiya, Chexiya, Slovakiya, Turkiya kabi davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida tarjimashunoslik, lingvistika, lingvodidaktika, pedagogika, metodika nuqtayi nazaridan muayyan mavzularni, masalan, frazeologik birliklarni nutqda to'g'ri qo'llash usul va texnologiyalari hamda ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishni o'rgatish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish ham muhimlik kasb etadi. Dunyo tilshunosligida frazeologizmlar psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etish xususiyatiga ega ko'pqirrali birlik sifatida talqin etiladi.

Mamlakatimizda "...xorijiy tillarni o'rganish uchun zarur sharoitlarni yaratish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish..."² muhim ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Ushbu vazifalarni hisobga olgan holda til o'qitish sohasini zamonaviy metodlar bilan boyitish va o'qituvchilarni ilg'or ta'lim dasturlari bilan tanishtirish ishlari olib borilmoqda. Tadqiqotimizda o'quvchilarning nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish jarayoniga tan olingan metodlarni olib kirish, o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirib borishni taqozo etadi. Til o'rganishda faqat ma'ruza va topshiriqlar tahlili bilan kifoyalanmay, balki uni qiziqarli va zavqli muhitga aylantirish, o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish maqsad qilib qo'yiladi. Mazkur qarorda belgilab qo'yilgan

¹ Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 May, 2015, Incheon, Republic of Korea). P. 6.– 26 p.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-5117-son Qarori. – Toshkent, 2021-yil 19-may.

“xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish, tilning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun video-rolik, o‘yin, ko‘ngilochar ko‘rsatuv, filmlar va boshqa o‘rgatuvchi kontentlarni yaratilishini tashkil etish³” vazifasi ham tadqiqotimizning zaruratini yana bir bor dalillaydi. Shu sababli, ishimizda o‘quvchilarning nemis tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olib, G.de.Bruyenning “Tristan va Izolda” asarida berilgan frazeologizmlar ta’limi misolida rivojlantirishga murojaat qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tili lug‘at xazinasidagi aksariyat frazeologik birliklar boshqa tillarda ham o‘z ekvivalentiga ega. Frazeologik birliklar o‘zlarining to‘liqligi, qo‘llanilish qulayligi, ixcham va ta’sirchanligi bilan boshqa til birliklaridan farq qiladi. Ular til birligi sifatida ifodalanadi va nutqning ekspressivligini oshiradi. O‘zbek tilshunos olimlari orasida Sh.Rahmatullayev, A.Abduazizov, N.Ne‘matov, O.Bozorov, A.E.Mamatov, Sh.S.Imyaminova, M.M. Mirtojdiyev, U. Madrahimov⁴ kabi olimlar frazeologiyaga oid tadqiqotlar olib borishgan.

MDH olimlari A.V.Kunin, B.A.Larinlarning asarlari frazeologik birliklarning manbalari va kelib chiqishi bilan bog‘liq ko‘plab qiziqarli ma‘lumotlarni ochib berdi. V.V.Vinogradov⁵ o‘z izlanishlarida: “Til lug‘at tarkibiga kiradigan so‘zlarning boyish va murakkablashuv mohiyatiga to‘xtalib o‘tish juda zarur, chunki

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ-5117-son Qarori. – Toshkent, 2021-yil 19-may.

⁴ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2006; G‘.Salomov. Maqol va idiomalar tarjimasini. Toshkent, 1961.43-b. B.Yuldoshev. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi taraqqiyoti-Samarqand:SamDU, 2007. 108-b. Ochilov E. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent 2005. 49-50 b. Musayev.Q. Tarjima nazariyasi asoslari.Toshkent 2005.67-b. G‘.Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, O‘qituvchi-1983, 116-121 b. G‘.Salomov.Til va Tarjima. Toshkent-1966. 259-b. Imyaminova Sh,S. Nemis tili frazeologiyasi. O‘quv qo‘llanma.2023 yil.

⁵ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка-М., Издательство “Высшая школа”, 1970.344 с. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии // фразеологии и стилистики: Уч. Зап./ ЛГУ.-Л.,1956- №198-201-202 стр. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. М., Наука. 1977.

tilning lug‘at tarkibiga oid so‘zlarning semantik rivojlanishi standart til frazeologiyasini boyitish bilan bog‘liq” ekanligini yozadi. Tildagi barcha so‘zlar, iboralar yig‘indisi va tilning lug‘at tarkibiga tegishli so‘zlarda majoziy ma’nolarning shakllanishi va kengayishi natijasida til leksikasiga kiritilgan frazeologik birliklar hosil bo‘ladiki, ulardan til o‘rgatish darslarida foydalanish o‘quvchining lug‘at zaxirasini boyitishga xizmat qiladi.

L.S.Kosman metodik yondashuvlar nemis tilidagi frazeologik birliklarni o‘rganishda tizimli, samarali va bosqichma-bosqich o‘qitish tamoyiliga asoslanib, frazeologik birliklarni o‘rganishda ularni mavzularga, semantik guruhlarga, stilistik xususiyatlariga qarab guruhlashni taklif etadi. Bu yondashuv o‘quvchiga iboralarni mantiqan tartiblash va yaxshiroq eslab qolishga yordam berishini metodik jihatdan tavsiflaydi.

Xorijiy mamlakatlarda frazemalar olimlar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilib kelinmoqda. Bu borada Babillon Laurence , Baur, Rupprecht S./Chlosta, Christoph/Grzybek, Peter, Bergerová, Hana, Kühn, Peter, Fleischer, Wolfgang, Burger, Harald, Monika Šajánková⁶ ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor. Metodik jihatdan J. C.Tsai, C. C.Tsai, W.Boers, F.Littlemore⁷ tadqiqotlarida frazeologizmlar va ularni kalkalash orqali ta’lim jarayoniga tatbiq etish haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, iboralar ta’limi orqali ta’lim oluvchilarning nutqiy kompetentligini oshirish uchun multimodal yondashuvlar vizual, tarixiy, kontekstual vositalar taklif qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasidagi ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar (2021-2025-yy.)” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilarning nemis tilini o‘rganishga qiziqishini rivojlantirish metodikasini frazeologik birliklar orqali takomillashtirish yuzasidan

⁶ Babillon, Laurence (2001) „Übungstypologie zur Phraseologie des Französischen“. In: Lorenz-Bourjot, Martine/Lüger, Heinz-Helmut (eds.): Phraseologie und Phraseodidaktik. Wien: Edition Praesens: 105-124. (= Beiträge zur Fremdsprachenvermittlung, Sonderheft 4). Baur, Rupprecht S./Chlosta, Christoph/Grzybek, Peter (1996). "Das Projekt 'SprichwörterMinima im Deutschen und Kroatischen': What is worth doing – do it well!". Muttersprache 106: 162-179. Bergerová, Hana (2009): "Wie viel Phraseologie brauchen künftige Deutschlehrende?" In: Spáčilová, Libuše/Vaňková, Lenka (eds.): Germanistische Linguistik – die neuen Herausforderungen in Forschung und Lehre. Brno, Academicus: 71–80. Bergerová, Hana (2010): „Multimediale Unterrichtsmaterialien für die Vermittlung von Phraseologismen. Erste Erfahrungen aus der Praxis“. In: Korhonen, Jarmo/Mieder, Wolfgang/Piirainen, Elisabeth/Piñel, Rosa (eds.): EUROPHRAS 2008 Beiträge zur internationalen Phraseologiekonferenz vom 13.–16.8.2008 in Helsinki. Helsinki, Universität Helsinki: 392-398. <http://www.helsinki.fi/deutsch/europhras/ep2008>. Kühn, Peter (2007): „Phraseme im Muttersprachenunterricht“. In: Burger, Harald/Dobrovolskij, Dmitrij/Kühn, Peter/Norrick, Neal R. (eds.): Phraseologie: Ein internationales Handbuch der zeitgenössischen Forschung/Phraseology. An International Handbook of Contemporary Research. Berlin, New York, Walter de Gruyter: 881-893. Fleischer, Wolfgang (1997)2; Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Niemeyer. Monika Šajánková phraseologismen in theorie und praxis lern- und lehrbuch, Comenius-Universität Bratislava, 2025. JungChih Tsai & ChingChih Tsai., Research on the Teaching Mode of Idioms in International Chinese Language Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology (ed. Berlin/New York: Mouton de Gruyter.1016-1019) (atlantis-press.com). Frank Boers va Seth Lindstromberg., Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology. Berlin/New York: Mouton de Gruyter.396, (catalog.libraries.psu.edu)

⁷ JungChih Tsai & ChingChih Tsai., Research on the Teaching Mode of Idioms in International Chinese Language Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology (ed. Berlin/New York: Mouton de Gruyter.1016-1019) (atlantis-press.com). Frank Boers va Seth Lindstromberg., Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology. Berlin/New York: Mouton de Gruyter.396, (catalog.libraries.psu.edu)

tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'quvchilarning nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirishning darajalari va bosqichlarini ishlab chiqish;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish metodikasini ta'lim motivatsiyasi ustuvorligi asosida takomillashtirish;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlanganligini baholash darajalari hamda mezonlarini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 322 nafar yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirishning mazmuni, vositalari, texnologiyalari, yondashuvlari hamda o'qitish usullari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda mos holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metod va treninglar majmuyi qo'llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari bilish faolligini boshqarishning reflektiv namoyon bo'lishiga asoslanib, polileksik, barqarorlik, idiomatiklik metodik-funksional modellashtirish va ijodiy-semantik transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish modeli salbiydan ijobiy faol darajaga oshirishning variativ rivojlanish, faol o'qitish hamda ijodiy mustaqillik bosqichlari mazmuniga CDIO, ADDIE ta'lim texnologiyalari va "experience exchange", "rotation" ta'lim metodlarini singdirish orqali takomillashtirilgan;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish metodikasi "Nemis tili" o'quv kursiga ijtimoiy o'yin modelini joriy etish orqali shaxsning o'z imkoniyatlarini baholovchi muloqot muhitini tashkil etish orqali ta'lim jarayoni mazmuniga singdirish orqali takomillashtirilgan;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlanganligini baholash mezonlari o'quv jarayonida tinglash va tushunish ko'nikmalarining shakllanganligi hamda nemis tilini o'zlashtirish darajasi orqali optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirishning kognitiv, motivatsion, reseptiv, kreativ baholash mezonlari takomillashtirilgan;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish metodikasi CDIO, ADDIE ta'lim texnologiyalari hamda "experience exchange", "rotation" kabi interfaol metodlari nemis tili ta'lim mazmuniga singdirish orqali takomillashtirilgan;

mavzu doirasida "Deutsche und usbekische Phraseologismen" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada shakllangan qoidalar, xulosa va tavsiyalarning ishonchliligi pedagogik-psixologik ta'lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchi pedagoglarning ishlariga asoslanganligi; tadqiqot ishining vazifalariga mos, o'zaro bir-birini to'ldirib turuvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tajriba-sinov ishlarining tahlili, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda nemis tilini o'qitish jarayoniga tatbiq qilingan kreativ metodlar samarasi o'quv amaliyotida aprobatsiyadan o'tib, o'zining samarali natijaviyligi asosida didaktik jarayonlarga tatbiq qilishda va tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dastur, tavsiyalardan qo'llanma tayyorlash hamda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni mazmunini takomillashtirishda foydalanilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirishga qaratilgan diagnostik so'rov usullarini joriy etishda, ta'lim jarayonida o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar ta'limi orqali rivojlantirishning kreativ, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari vositasida yuqori sinf o'quvchilarida bilim, ko'nikma va malakasini rivojlantirishda, interfaol ta'lim muhitini yaratishning informatsion-metodik tizimini takomillashtirish hamda o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar ta'limi orqali rivojlantirishning kreativ metodikasini shakllantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

o'quvchilarning nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari bilish faolligini boshqarishning reflektiv namoyon bo'lishiga asoslanib, polileksik, barqarorlik, idiomatiklik metodik-funksional modellashtirish va ijodiy-semantik transformatsiyalashga doir amaliy tavsiyalardan 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan "Deutsche und usbekische Phraseologismen" nomli o'quv qo'llanmani tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-son buyrug'i. Guvohnoma

№899467). Natijada, til o'rganuvchilar uchun frazemalardan unumli va o'rinli foydalanish metodikasi tavsiya etilgan, shuningdek, metodik jihatdan zaruriy adabiyotlar ta'minotini boyitishga erishilgan;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish modeli salbiydan ijobiy faol darajaga oshirishning variativ rivojlanish, faol o'qitish hamda ijodiy mustaqillik bosqichlari mazmuniga CDIO, ADDIE ta'lim texnologiyalari va "experience exchange", "rotation" ta'lim metodlarini singdirishga doir xulosalardan Toshkent davlat agrar universitetida 2024-2025-yillarda bajarilgan AL-672205589-sonli "O'rmonchilik sohasiga oid atamalarning o'zbekcha-inglizcha-ruscha-nemischa illyustrativ elektron lug'at va mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasining "O'quvchilarda nemis frazeologik birliklarga bo'lgan qiziqishini oshirishning metodik ta'minoti" qismini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2025-yil 12-maydagi №1/1-1-581-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning amaliy qiymati va serqirraligi oshishiga erishilgan;

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlantirish metodikasi "Nemis tili" o'quv kursiga ijtimoiy o'yin modelini joriy etish orqali shaxsning o'z imkoniyatlarini baholovchi muloqot muhitini tashkil etish orqali ta'lim jarayoni mazmuniga singdirishga doir taklif va tavsiyalar Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi 7-,37-,40-, 96-, Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 11-,22-,3-, Buxoro viloyati Peshku tumanidagi 13-,21-,35-umumiy o'rta ta'lim maktablarining nemis tili darslarida amaliyotga tatbiq etilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 4-dekabrda 01/11-1-838-son ma'lumotnomasi). Natijada, nemis tili o'qitish jarayonida didaktik o'yinlarni uyushtirish hamda frazeologik birliklar ustida ishlash orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini yanada takomillashtirishga erishilgan.

o'quvchilarning nemis tiliga bo'lgan qiziqishini frazeologik birliklar orqali rivojlanganligini baholash mezonlari o'quv jarayonida tinglash va tushunish ko'nikmalarining shakllanganligi hamda nemis tilini o'zlashtirish darajasini takomillashtirishga oid nazariyalardan ta'lim jarayonida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 9-dekabrda 1974/13-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning nemis tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirish metodikasini frazeologik birliklar orqali takomillashtirishga oid amaliy ko'nikmalar shakllantirilgan

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan 5 ta respublika, 1 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta metodik qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 15 ta maqola, shundan, 5 tasi respublika va 10 ta xorijiy jurnallarda chop ettirilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning ilk bobi **“O'quvchilarning nemis tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Bunda o'quvchilarda nemis tili frazeologik birliklariga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish metodik muammo sifatida, o'quvchilarning nemis tili frazeologik birliklariga qiziqishini rivojlantirishning didaktik asoslari, o'quvchilarning nemis tili frazeologik birliklariga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishning mavjud holati yuzasidan nazariy asoslari belgilab olingan.

Frazeologik birlik–ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va semantik jihatdan bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi. Frazeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llanadi, ya'ni frazeologizmlar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: *anqoning urug'i, arpasini xom o'rmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig'may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko'ngli joyiga tushmoq, qo'li ochiq, qulog'i og'ir* va b. Frazeologizmlar tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi.

Rus tilshunosi Y.D.Polivanov frazeologiyani tilshunoslikning alohida bo'limi ekanligini asoslab bergan edi. “Leksikologiya so'zlarning leksik ma'nolarini, morfologiya so'zlarning grammatik ma'nolarini, sintaksis esa, so'z birikmalarining grammatik ma'nolarini o'rganadi. Ammo alohida olingan, ko'chma ma'noli so'z birikmalarining, individual ma'nolarini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limiga ehtiyoj sezilmoqda“. U tilshunoslikda frazeologiya ham, morfologiya yoki fonetika singari muhim ahamiyat kasb etadigan bo'lim ekanligini ta'kidlab o'tgan tilshunoslardan biridir. Frazeologizmlar shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi. Tilning boyligi va asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy boylikning sifati idiomalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Frazemalar ta'limida turli metodik usullardan samarali foydalanish mumkin: tarixiy frazemalarni oladigan bo'lsak, ular bir necha asrlar oldin yaratilganligini izohlashimiz mumkin. Masalan (Qarang: 1-jadval).

Frazemalarning sinonimik, omogrammatik xususiyatlari, ularning tasnifi; ibora va so'z (leksema), qo'shma so'z, so'z birikmasi va gap birliklari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar; frazemalarning sinonimik, omonimik, polisemik va zidlik xususiyatlari haqida chuqur tahlillar olib borilgan. Sh.Rahmatullayevning “O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari” nomli monografiyasining xarakterli tomoni

shundaki, unda frazeologik omonimlarni frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalardan farqlashga harakat qilinganligidir⁸.

1-jadval

Historische Redewendungen

Nemischa ibora	So‘zma-so‘z tarjima	Tarixi / kelib chiqishi	Ma‘nosi (o‘zbekcha)	Kundalik qo‘llanilishi
Sich mit fremden Federn schmücken	Begona patda bezanmoq	5–6 asr oldin yozishni bilganlar qulog‘i ustiga parranda patini taqib yurishgan; boshqalardan ajralib, diqqatni tortish uchun	Boshqalarning yutuqlarini o‘z yutug‘idek ko‘rsatmoq	Kimdir do‘sti(tanishi, yaqini)ning g‘oyasi (muvaffaqiyati)ni o‘z ishi deb ko‘rsatganda ishlatiladi
Ein Brett vor dem Kopf haben	Boshi oldida taxtacha tutmoq	Qadimda o‘qish taxtasi va “Tabula Rasa” (tekis doska, yozilib o‘chiriladigan)	Biror narsani tushunmay qolish yoki muammoni hal qila olmaslikda qo‘llaniladi	Kimdir murakkab vaziyatni tushunmay qolsa, “u taxtani boshida tutmoqda” ma‘nosida qo‘llaniladi
Tabula Rasa	Tekis doska	Rimliklar 2000 yil oldin ishlatgan; kichik daftarcha	Yangidan boshlash, mavjud muammoni qayta o‘rgansh	Reja tuzishda yoki muammoni hal qilishda ishlatiladi

Frazeologizmlar haqli ravishda lug‘at boyligining birliklari sifatida tadqiq qilinishi va xuddi so‘zlar kabi tasvirlanishi lozim. Bu misol uchun frazeologizmlar va alohida so‘zlar uchun asosiy umumiy tushuncha sifatida leksema terminining qo‘llanilishida o‘z ifodasini topadi. Yaxlit holda keltirilgan frazeologiya xuddi sintaksis va morfologiya kabi chambarchas bog‘liq yo‘nalish sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Xuddi shunday ona tilimizdagi frazeologik birliklar purma‘noligi va aniq talqin etilishi bilan tilimiz boyligiga amin bo‘lamiz.

Frazeologik birliklarning qiziqarli til vositasi ekanligini ham ilmiy ham amaliy nutqimiz jarayonida bemalol tahlil qila olamiz va qo‘llaymiz. Masalan, *Jemandem auf den Schlips treten* – (so‘zma-so‘z) (Kimnidir galstugi(ni)(ga) kirmoq, bosmoq)⁹. *Jemanden kränken/beleidigen* – kimnidir dumini bosmoq, kimnidir qiyin vaziyatga solmoq, tanqid qilmoq; *loy chaplamoq* – orqasidan yomon gap-so‘z aytmoq, tuhmat qilmoq (Setora, odamlarning orqasidan loy chaplamoq yaxshi emas, bilasan-ku). *Sinonimi: mag‘zava ag‘darmoq, tosh otmoq; Dumini bosmoq g‘ashiga, asabiga tegmoq. Idorada, ish ustida, ish yuzasidan gapirayotirman. Dumingizni bosganim yo‘q.* (A.Qahhor, Sarob); *Men bir-ikkitasining dumini bosdim, shekilli.* (S. Siyoyev, Otlig ayol).

⁸ Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba‘zi masalalari. – Toshkent, 1966.

⁹ Burger Harald. Idiomatic des Deutschen, 1974. –P. 4.

▪ Bei ihm musst du genau aufpassen, was du sagst, denn er fühlt sich immer gleich auf den Schlips getreten.

▪ Ich möchte dir nicht auf den Schlips treten, aber ich glaube, dass dein Verhalten sehr egoistisch und rücksichtslos ist.

▪ Sollte ich dir irgendwie auf den Schlips getreten haben, so tut es mir leid.

▪ Sie hat ihre Kritik sehr vorsichtig formuliert, damit sich niemand auf den Schlips getreten fühlt.

Siz u bilan gaplashayotganda ehtiyot bo‘lishingiz kerak, chunki u doimo o‘zini oyoq barmoqlarida qadam qo‘ygandek his qiladi.

Men sizni xafa qilishni xohlamayman, lekin sizning xatti-harakatlaringiz juda xudbin va beparvo ekanligiga ishonaman.

Agar oyog‘ingni biror bir tarzda bosgan bo‘lsam, kechir.

Hech kim xafa bo‘lmasligi uchun u o‘z tanqidini juda ehtiyotkorlik bilan aytdi.

Frazeologiyaning xarakterli tomoni shundaki, til egasi muloqot jarayonida yangi frazeologik birlik yaratadi va u uni faol leksikaga aylantiradi. Frazeologik birliklar til jarayonidagi qayta tug‘ilayotgan til hodisasi va til davomchisidir. Til qurilmasi qoidaviy, yuqori elastikli muloqot vositasi sifatida qurilsa-da, aksincha, frazeologik birlik bu qoidalarga amal qilmagan til jarayonining ko‘pirtiruvchi, jilovlanuvchi hodisasi sifatida shakllanadi. Aniq izohlanganda, frazeologik birliklar har xil muomala-muloqotda faol: do‘stlar suhbatida, oila davrasida, shuningdek, jurnalistikada maqola sarlavhalari uchun asos hisoblanadi¹⁰.

Frazeologik birliklar tilda tasviriylik, obrazlilik va madaniy-ma’naviy qatlamlarni ifodalovchi asosiy vositalardan biri sifatida maydonga chiqadi. Til o‘rgatish va tarjima jarayonlarida frazeologizmlarning metodik va didaktik o‘rganilishi ularning semantik murakkabligi, konnotativ ma’nosi, leksik jihatdan butunlik kasb etgan tuzilishi hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan adekvatlik muammolari bilan bevosita bog‘liq. Didaktik nuqtayi nazardan, frazeologik birliklar: tilning kommunikativ samaradorligini oshiruvchi, hissiy-ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida kontekstual o‘rganishni talab qiluvchi murakkab til birliklari sifatida o‘rganilishi zarur. Ushbu birliklar orqali nafaqat tildagi ifoda vositalari, balki milliy tafakkur, mentalitet, madaniyat, tarixiy tasavvurlar ham o‘z aksini topadi. Shu sababli ularni o‘rganish va tarjima qilish zamonaviy tarjima nazariyasi doirasida interdiscipliner yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobi **“O‘quvchilarning nemis tilini o‘rganishga qiziqishini rivojlantirishning metodik ta’minoti”** deb nomlanib, mazkur bobda o‘quvchilarga nemis tilini o‘rgatish jarayonida frazeologik birliklarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishning mazmuni, shakl va vositalari, o‘quvchilarda nemis frazeologik birliklarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishning metodik ta’minoti, o‘quvchilarni frazeologik birliklarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari xususida fikr yuritilgan.

Frazeologik birliklar so‘zlar asosida yaratilib, metaforadek uyg‘unlashsa-da, so‘zlar ma’nosini so‘zma-so‘z emas, balki ko‘chma ma’noda kitobxonga anglatadi. Xalqlarning madaniyati, tarixi, o‘tmishini izohlaydi. Aynan tafsilotlar hozirgi vaqt bilan emas, balki o‘tgan zamoni voqealari bilan bog‘liq inson yashash tarzi va

¹⁰[Tatjana Samardžija](#), english, french and serbian translations of biblical phrasemes with beten, meeh and racham, 2020 6.10.3

tabiat hodisalarini jonlantiradi. Aksariyat hollarda maqol bilan frazeologik ibora bog‘liqdek o‘quvchiga tushuniladi, vaholanki, maqol hayotiy haqiqat asosida yaratiladi, frazeologik iboralar insonlarning fantasiyasi(o‘y-xayol)lari mahsulidir.


Canan Özgürning maqolasi Richard Wagnerning *Tristan va Izolda* operasini musiqiy va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. U, Schopenhauer falsafasidan ilhomlanib, karma, nishon, xohish, mehr va o‘lim kabi mavzularni musiqada aks ettirganini ta’kidlaydi. Opera o‘zining musiqiy tuzilishi, leitmotivlar va Tristan akkordi bilan musiqiy inqilobni amalga oshirgan. **Fred Tonerning** maqolasi *Tristan va Izolda* asarining o‘rta asr afsonasidan qanday transformatsiya qilinishi haqida so‘z yuritadi. U, Wagnerning operasida afsonaning romantik va falsafiy jihatlari qanday o‘zgarganini tahlil qiladi.

Amanda Persaudning dissertatsiyasi *Tristan va Izolda* hikoyasining tarixiy rivojlanishini uch bosqichda tahlil qiladi: feodal versiya, ritsarlik muhabbati va xristian muhabbati. Unga ko‘ra, Wagnerning operasi feodal dunyoning axloqiy va siyosiy me‘yorlariga qarshi chiqib, shaxsiy xohish-istakni ulug‘laydi.

John Koslovskyning maqolasi *Tristan va Izoldaning* musiqiy tahlilini intertekstual yondashuv orqali ko‘rib chiqadi. U, asarning musiqiy tahlilining tarixiy rivojlanishini va uning musiqiy analitik diskursdagi o‘rnini o‘rganadi. **Jutta Eming** – *Emotionen im ›Tristan‹: Untersuchungen zu ihrer Paradigmatik*. Bu asar *Tristan* dagi hissiyotlar paradigmaticasi va uslublar jihatidan tahlil qilingan.

O‘zaro ta‘sir yaxlit tizim sifatida uch holatga ega: boshlang‘ich, o‘rta, oxirgi. Yuqoridagi uch holatga ko‘ra bola ongida qator hodisalar amal qiladi: muammo yoki topshiriqni anglash; tushunish va yechimlarni qabul qilish; muammo yoki topshiriqni bajarish. Har bir natijaga eng kamida ikki xil vosita orqali erishiladi: muammo yoki topshiriqni anglash, predmetlar (so‘z) bilan muloqot qilish (1) va bilimlar, faoliyat usullari, hayotiy tajribani faollashtirish (2); yechimlarni qabul qilish, narsalar bilan qilingan muloqotga ko‘ra olingan axborot (1) va bilishning psixologik imkoniyatlari – xotira, tafakkur, aqliy faoliyat usullarini ishlatish (2); bajarish, shu hodisaga oid ongda tushunchalarni ishlatish (1) va mantiqiy usullar – taqqoslash, tanlash, induksiya yoki deduksiya. O‘quvchi va o‘quv materialining uch holatida uch xil natijaga erishiladi: 1) anglash; bu jarayonda bilishning fiziologik imkoniyatlari va ularga oid vositalar ishtirok etadi; 2) yechimni qabul qilish; muammolarni bajarishning bu holatida bilishning psixologik imkoniyatlari va ularga oid vositalar ishtirok etadi; 3) bajarish; keyingi holatda bilishning mantiqiy mexanizmlari va ularga oid vositalar qatnashadi. Binobarin, o‘quv materiallarini, ularning turli shakllari — muammo, topshiriqlarni bajarish uch xil asosga — fiziologik, psixologik, logik mexanizmlarga, ularga oid vosita hamda natijalarga ega.

Harold D. Dickerson Jr. – *Language in ‘Tristan’ as a Key to Gottfried’s Conception of God*. Bu tahlilda *Tristan* asari tili, til vositalari va u orqali muallifning tasavvuri (“Gott”) qanday ifodalanganligi tahlil qilinadi. Albrecht Classen — *A Complete Concordance to Gottfried von Strassburg’s Tristan*. Ushbu ish matn bo‘yicha to‘liq indeks/concordance (so‘zlar, iboralar, stilistik birliklar) tayyorlashga qaratilgan. Bu orqali o‘quvchilar frazemalarni og‘zaki nutqda tabiiy qo‘llashni o‘rganadilar. Uningcha o‘rgatish jarayonida frazemalarni qiyinlik darajasiga ko‘ra bosqichlab tanlashni taklif qiladi – dastlab sodda va mashhur iboralar, keyinchalik murakkab va kamroq ishlatiladigan birliklar o‘rgatiladi.



2.1.6-rasm. Nemis tili darslarida frazeologik birliklarni o'zlashtirish bosqichlari

Afzalligi: Bu metodik yondashuv o'quvchiga ruhiy bosimni kamaytiradi, o'ziga ishonchini oshiradi va mukammal natijaga olib keladi. Nemis tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o'rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish, chunonchi, o'rganilayotgan har bir mavzu o'quvchilardan tovushlar, so'zlar va gaplarni qiyoslashni shu asosda umumlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham o'z-o'zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. "Tristan va Izolda" – Bedierning asosiy asarlaridan biridirki, u mashhur kelt afsonasining ajoyib qayta hikoyasi bo'lib, unda muallifning nozik adabiy iste'dodi, uning yorqin filologik tuyg'usi va o'rta asrlar dunyoqarashini tushunish aks etadi. (3-rasmga qarang)

Ijtimoiy buyurtma: O'quvchilarning nemis tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish hamda uni o'qitish jarayoniga innovatsion metodlar va reflektiv yondashuvlar asosida tatbiq etish

MOTIVATSION-KOMMUNIKATIV KOMPONENT

lingvistik, madaniy, kommunikativ, kognitiv va reflektiv komponentlarning o'zaro bog'liqligini tahlil etish

O'quvchilarning nemis tiliga qiziqishini frazeologik birliklar tahlili orqali rivojlantirish muammolarini tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish

O'quvchilarning nemis tiliga qiziqishini frazeologik birliklar tahlili orqali rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik kompleksni nazariy mashg'ulotlar, amaliy topshiriqlar va reflektiv tahlil mashqlarini ishlab chiqish

Maqsad: o'quvchilarning nemis tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirish

Nazariy asos: kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ til o'qitish nazariyasi, pragmatik, muammoli ta'lim, reflektiv pedagogika tamoyillari

KOGNITIV KOMPONENT

Tushunish (comprehension):

Tahlil (analysis):

Qayta ishlash (restructuring):

- Semantik anglash
- Kontekstual anglash
- Maqsad tilga moslash
- Tahlil va sintez qobiliyati

- Matn elementlarini tahlil qilish va ularni maqsad til kontekstida baholash
- Sintaktik va semantik xatolarga e'tibor qaratish
- Matning asosiy g'oya va tafsilotlarini ajratib olish

- o'quv materialini modelash
- qayta ifodalash qobiliyati
- emanetik, sintaktik va stilistik moslikni ta'minlash

AMALIY-FAOLIYAT KOMPONENT

REFLEKSIV-ANALITIK KOMPONENT

Tayyorgarlik bosqichi

Amaliyot bosqichi

Takomillashtirish bosqichi

Maqsad va vazifalarni belgilash

Individual, juft yoki guruhlarda ishlash

Tayyorlovchi-retseptiv

Material tanlash

Frazeologik birliklar asosida ishlash

Mamuniy imitatsion

Lingvistik komponentni oshiruvchi nazariy materiallar tayyorlash

Strategik komponent

Yakunlovchi-nazorat

Formatif baholash dars jarayonida o'quvchilarning kuzatuvini, tezkor izoh va tuzatishlar berish.

Summativ baholash dars oxirida talabalarining tajriba qila olish darajasini og'zaki yoki yozma topshiriqlar orqali baholash.

O'zini-ozini baholash talabalar o'z tarjima faoliyatini baholash varaqalari orqali tahlil qilishadi.

TEXNOLOGIK-DIDAKTIK KOMPONENT

Interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish

Raqamli resurslardan foydalanish

Differensial va individual yondashuvni qo'llash

Monitoring va reflektiv tahlil faoliyati

BAHOLOVCHI-AZORAT KOMPONENTI

A'lo

O'rta

Quyida

Natija: O'quvchilarning nemis tiliga qiziqishini frazeologik birliklar tahlili orqali oshirishga ega, til bilimlarini amalda qo'llay oladigan, madaniyatlararo muloqotga tayyor, mustaqil fikrlaydigan va reflektiv faol shaxs

"3-rasm". O'quvchilarning nemis tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirish metodikasini frazeologik birliklar asosida o'qitishning takomillashtirilgan modeli.

Mazkur model quyidagi tarkibiy qismlarni o'zida aks ettiradi:

Motivatsion-kommunikativ komponent - ijtimoiy buyurtma, faoliyat maqsadi, tashkil etishga doir bosqich, yondashuv va komponentlarni;

Kognitiv komponent - pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar, shakl, metod va vositalarni;


Amaliy-faoliyat komponent - o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasi asosida faoliyat bosqichlari (diagnostik, kognitiv, faoliyatli, natijaviy-baholash), faoliyatni tashkil etish shakllari, o'quv mashg'ulotlari mazmunini belgilash darajalari, bilish faoliyatini rivojlantiruvchi faol ta'lim strategiyalari va o'qitish vositalarini belgilaydi;

Refleksiv-analitik komponent- formativ, summativ va o'z-o'zini baholash jarayoni tavsiflanadi.

Texnologik-didaktik komponent- interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish, raqamli resurslardan foydalanish, differensial va individual yondashuvni qo'llash.

Baholovchi-nazorat komponenti esa nemis tili darslarida o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligini belgilovchi unikal (umumiy) pedagogik mezon va darajalari, faoliyat turlari, shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar hamda kutiladigan natijani o'zida aks ettiradi.

Gyunter de Bruyening "Tristan va Izolda" asari misoli tasnifida frazeologik birliklar quyidagi guruhlariga ajratildi:



4-rasm. Gyunter de Bruyening "Tristan va Izolda" asaridagi frazeologik birliklar guruhi

Amaliy taqqoslash asosida ikkala tilning frazeologik tizimlari bir-biriga qanchalik yaqin ekanligini, balki ular qanchalik farqli ekanligini ham ko'rish mumkin. Ikkala tilda ham bir xil yoki juda o'xshash frazeologizmlar ko'p. Boshqa tomondan, bu yerda o'zbek tilida umuman ishlatilmaydigan yoki boshqa shunga o'xshash ma'noli iboralar ham bor. Bu asarni qarama-qarshilik va qarama-qarshilik frazeologiyasiga qo'shgan hissa deb hisoblash mumkin. O'quvchilarni frazeologik birliklar bilan tanishtirish zarur, chunki u tilning juda muhim qismidir.

Frazeologizmlar nemis tilshunosligida o'rganila boshlangach, frazeologik birliklarni tasniflash, tizimlashtirish masalasi ko'tarila boshlandi. Nemis tilshunos olimlari frazeologizmlarni turlicha yondashuvlar asosida klassifikatsiyalashgan. Demak, tilshunos olimlar frazeologizmlarni turli xil jihatlarini o'rganishga urinishgan. Barcha sohalarda bo'lgani kabi frazeologiya ham o'zining o'rganish

obyektiga ega¹¹. Frazeologiyaning o‘rganish obyekti, o‘z navbatida, shunday murakkab va o‘ziga xoski, uni o‘rganish jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan frazeologik birliklar va ularning tilda turli metodlarda tahlili nutqimiz rivojlanishiga yangi manbalar yaratadi.

2-jadval

Frazeologik birliklarga xos jihatlar

Bo‘lim	Vazifa / Yondashuv	Ta’sir / Natija
1.Didaktik yondashuv	Til o‘rganuvchi frazeologik birliklarni tushunib, ularni kontekstda to‘g‘ri ishlata olishi	Tilni chuqur anglash bosqichiga o‘tadi; passiv ko‘nikmalar faol kommunikativ kompetensiyaga aylanadi
2.Frazeologik birliklarning ta’siri	Semantik tarmoqlanish orqali o‘rganuvchini rivojlantirish	Obrazli tafakkurga o‘rgatadi; madaniy differensiallikni tan olishga undaydi; tarjimonlik, tafsir va muloqotda konnotatsiyani anglashga yo‘naltiradi
3.Frazeologiyalarni o‘rgatish usullari	Intertekstual yondashuv; semantik-tarmoqli xaritalash; situativ mashqlar	Ibora va ularning o‘zaro munosabatlarini ochib beradi; nutqiy kompetensiyani kuchaytiradi
4.Frazeologiya orqali tilni rivojlantirish	Lingvokognitiv mexanizmlar; lingvokultural tafakkur; metalingvistik refleksiya	Obraz, assotsiatsiya, konnotatsiya faollashadi; til-madaniyat munosabatini tushunish; til haqida til orqali fikrlash shakllanadi

Til o‘qitish metodikasidagi mavjud tajribalar va o‘rganilgan materiallarning o‘zligi tillararo moslashuvdan to‘liq foydalanishga imkon bermaydi. Shuning uchun moslashtirish usulidan foydalangan holda ishni quyidagicha tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilarga nemis tilini o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish masalasi ilgari surilgan G.Samiboyevaning izlanishlarida “Muammoli vaziyat yechimi” (“Creative Problem Solving”), “Quvnoq topishmoqlar” (“Merry Riddles”), “Chigil yozdi” (Warm up exercises), “Xotirani mustahkamlash” (Memory game) kabi o‘yinlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishdagi ahamiyati bayon etiladi. Amaliyotda ko‘rildiki, bu shaklda qoida yodlatish bilan mohiyatni eslab qolish, uni anglash ko‘ngildagidek kechmaydi. Shuning uchun biz tajriba-sinov davomida samara bergan “Qoidani qismlarga bo‘l” usulini qo‘llashni tavsiya etamiz. Usulning mazmuni oddiy: o‘quvchilar o‘qigan qoidalarida nechta ahamiyatli fikr ko‘rayotganlariga qarab qismlarga bo‘ladilar. Harakat nomi ta’rifini to‘rt qismga bo‘lish mumkin: otlar kabi 1) egalik qo‘shimchasini oladi, 2) kelishik qo‘shimchasini oladi, 3) ko‘plik qo‘shimchasini oladi, 4) gapda otga xos vazifani bajaradi.

CDIO ta’lim texnologiyasi

CDIO —amaliy kasbiy ta’limda keng qo‘llaniladigan model. Qisqartma ma’nosi:

¹¹ BURGER, Harald (1987): Aktuelle Probleme der Phraseologie. Bern et al.: Lang.

C–Conceive (G‘oya yaratish)
D–Design (Loyihalash)
I–Implement (Amalga oshirish)
O – Operate (Ishlatish)

Bosqichlari

- **Conceive** – muammo aniqlanadi, g‘oya shakllantiriladi
- **Design** – reja, model, loyiha ishlab chiqiladi
- **Implement** – loyiha amalga bajariladi
- **Operate** – natija sinovdan o‘tkaziladi va foydalaniladi

Afzalliklari

Amaliy yo‘naltirilgan

Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi

Jamoada ishlash kompetensiyasini oshiradi

ADDIE — o‘quv jarayonini rejalashtirish va loyihalash modeli.

A – Analysis (Tahlil)

D – Design (Loyihalash)

D – Development (Ishlab chiqish)

I – Implementation (Joriy etish)

E – Evaluation (Baholash)

Bosqichlari

- **Analysis** – ehtiyojlar, o‘quvchi darajasi tahlili
- **Design** – maqsad, mazmun, metod tanlash
- **Development** – materiallar yaratish
- **Implementation** – darsni o‘tkazish
